



SOIL AND PLANT WORLD LOCATED IN BAKHMAL DISTRICT, JIZZAKH REGION

Sindorov M.E

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ABOUT ARTICLE

Key words: Chumkor and Morguzar mountain slopes, Sangzor valley, geomorphological conditions, Tuyatortar canal, typical and dark gray, brown and light brown soils, ephemers and ephemerids, mountain forest-steppe, subalpine meadows.

Received:

Accepted:

Published:

Abstract: Vertical location and regularity of soils in Bakhmal district. It is characterized by the variety of soil cover in connection with climatic geomorphological conditions, which change depending on the increase in altitude. Distribution of plant life depends on the soil layer, geomorphological structure and climatic characteristics, based on the laws of height zoning of the area.

JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANIDA JOYLASHGAN TUPROQ VA O'SIMLIK OLAMI

Sindorov M.E

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Chumqor va Morguzar tizma tog'lari yonbag'irlari, Sangzor vodiysi, geomorfologik sharoit, Tuyatortar kanali, tipik va to'q tusli bo'z, jigarrang va och qo'ng'ir tuproqlar, efemer va efemeroidlar, tog' o'rmon-dasht, subalp o'tloqlari.

Annotatsiya: Baxmal tumanidagi tuproqlarning vertikal bo'ylab joylashuvi va qonuniyati. Balandlik belgilarining oshishiga bog'liq holda o'zgaradigan iqlimiy geomorfologik sharoit bilan bog'liq tuproq qoplamining xilma-xilligi bilan xarakterlanishi. Hududning balandlik mintaqalanish qonuniyatlariga asosan tuproq qatlami, geomorfologik tuzilishi va iqlimiy xususiyatlariga bog'liq holda o'simlik olamining tarqalishi.

ПОЧВЕННО-РАСТИТЕЛЬНЫЙ МИР РАСПОЛОЖЕН В БАХМАЛЬСКОМ РАЙОНЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Синдорев М.Е.

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Чумкорский и Моргузарский склоны гор, Сангзорская долина, геоморфологические условия, Туятортарский канал, типичные и темно-серые, бурые и светло-коричневые почвы, эфемериды и эфемериды, горная лесостепь, субальпийские луга.

Аннотация: Вертикальное расположение и регулярность почв Бахмальского района. Характеризуется разнообразием почвенного покрова в связи с климато-геоморфологическими условиями, изменяющимися в зависимости от высоты. Распространение растительного мира зависит от почвенного слоя, геоморфологического строения и климатических особенностей, исходя из законов высотной поясности местности.

KIRISH

Tuproq tog' jinslarining nurashi mahsulidir. Lekin tuproq o'zining bir qancha xususiyatlari bilan tog' jinslaridan keskin farq qiladi. Tuproq deb, yerning ustki qismida joylashgan va o'simliklarining rivojlanishi uchun sharoit mavjud bo'lgan unumdor qatlamiga aytiladi. Tuproqlarning tabiatdagi va jamiyatdagi ro'li beqiyosdir. Tuproq organizmlar uchun hayot muhiti va oziqa manbai hisoblanadi. Moddalarning kichik biologik va kata geologik aylanma harakatida muhim ro'l o'ynaydi [1,5 b]. Baxmal tumani Chumqor va Morguzar tizma tog'lari yonbag'irlarida va Sangzor vodiysida joylashgan. U balandlik belgilarining oshishiga bog'liq holda o'zgaradigan iqlimiy geomorfologik sharoit bilan bog'liq tuproq qoplamining xilma-xilligi bilan xarakterlanadi.

ASOSIY QISM

Balandlik mintaqalarga muvofiq bu yerda tipik va to'q tusli bo'z, jigarrang va och qo'ng'ir tuproqlar ketma-ket o'rin almashadi. Sug'orma zona Tuyatortar kanali vodiysida Zarafshon daryosining III qayir usti terrasasida joylashgan. Tuproq qoplamasi asosan sug'orma dehqonchilikda foydalaniladigan tipik bo'z tuproqlardan iborat. Tipik bo'z tuproqlar tuproq hosil bo'lish jarayonida qatnashmaydigan grunt suvlarining chuqurda yotishida rivojlanadi. Shu sababli tez eriydigan tuzlar va gips chuqur yuvilgan, karbonatli yuqori. Mexanik tarkibiga ko'ra o'rtacha qumoq. Sug'orma zonaning asosiy hududi sug'orma dehqonchilikda foydalaniladi. To'yinish elementlari azot va fosfor. Faqat kalsiy bilan ta'minlangan. Shunga qaramay tipik bo'z tuproqlar toifasiga kiradi, ya'ni sug'orishda va o'g'it berilganda yuqori hosil beradi. Hosildorlikning yana bir muhim sharti almashlab ekishni joriy etish hisoblanadi.

Lalmi yaylov zonasi rayonning asosiy hududini egallaydi va tog' etaklaridagi nishablikdan baland tog'largacha cho'zilgan. Quyi mintaqalar tipik va to'q tusli bo'z tuproqlar bilan, o'rta tog'lar va baland tog'lar jigarrang va och qo'ng'ir tuproqlar bilan band. Tipik bo'z tuproqlar dengiz sathidan 700 - 800 m balandlikdagi tog' etaklaridagi nishabliklarni egallaydi. Bu tuproqlarning asosiy maydoni fizik - kimyoviy sharoitlari kabi relyef bo'yicha kam qulay toifaga kiritiladi. Shu sababli lalmi dehqonchilikda foydalaniladi.

Mexanik tarkibiga ko'ra gilli va qumoq lyosli qatlamlar bilan uchraydi. Tikroq yonbag'irlar deyarli barcha qismi yuvilgan. Ularning unumdorligini tiklash uchun qoramol boqishni, hech bo'lmaganda alohida uchastkalarda ma'lum bir davrlarda ta'qiqlash hamda serildiz o'tlarni ekishni tavsiya etish zarur.

To'q tusli bo'z tuproqlar tipik, tipik bo'z tuproqlardan dengiz sathidan 800 - 1000 m balandlikdagi tog' oldi va past tog'li o'lkalarda tarqalgan. Ularning asosiy maydoni skletli va yemirilgan skletli tuproqlardan iborat. Lalmi yerlarda ishlov berishga yaroqli alohida tarqoq uchastkalar foydalaniladi.

Tog' etaklarida va tog' yonbag'irlarining dengiz sathidan 1000 - 1600 metrgacha balandlikda bo'lgan joylarida och tusli jigarrang tuproqlar tarqalgan bo'lib, ularning tarkibidagi chirindi miqdori 3 - 5 % dir. Tog'li hududlarning dengiz sathidan 1600 - 1800 m gacha bo'lgan joylarida to'q tusli bo'z tuproq, jigarrang va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari tarqalgan. Bunday tuproqlarni Zomin tog'lari, Morguzar va Chumqortog' tizmalarining shimoliy yonbag'rida uchratish mumkin. 2000 - 2600 m dan baland bo'lgan Zomin tog'i va CHumqortog'ning suvayirg'ich qismlarida asosan och qo'ng'ir tuproqlari mavjud, ularda ko'pincha tuproq hosil qiluvchi jinslar qatlami ko'rinib turadi. Tuproq qatlamining yupqaligini iqlimning keskinligi va vegetasiya davrining qisqa ekanligi bilan izohlash mumkin.

Tabiiy-geografik sharoitning ta'sirini mintaqadagi mavjud o'simliklar qoplamida ham ko'rish mumkin. Shu sababdan, moslashgan. hududi balandlik mintaqalanish qonuniyatlariga asosan shimoldagi tekisliklardan, janubdagi tog'lar tomon o'simliklar turi o'zgarib boradi. Hududning yozi issiq, quruq, serquyosh, qishi nisbatan sovuq bo'lishi o'simliklar o'sishi uchun biroz noqulay bo'lishiga qaramasdan, hududida o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. O'simliklar hududning geomorfologik tuzilishiga bog'liq holda pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarib boradi. Shu sababdan chala cho'l, dasht, tog' o'rmon-dasht va tog' o'tloq mintaqalariga xos o'simliklar uchraydi. Har bir balandlik mintaqasining o'simlik qoplamini o'sha hududning tuproq qatlami, geomorfologik tuzilishi va iqlimiy xususiyatlariga

Chala cho'l va dasht mintaqasi viloyatning 500 - 1300 m gacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada cho'lga nisbatan o'simlik turi ko'proq va qalinroqdir, bunga yog'in miqdorining ko'payishi, haroratning cho'lga nisbatan pastroq bo'lishi sababchidir. Cho'lga tutash adirlarda efemer va efemeroidlardan qo'ng'irbosh, chuchmoma, kavrak, qoqi, no'xatak, lola, shashir kabilar iyul oyigacha o'sadi. Shuvoq, mingbosh, taktak, otquloq, ermon, zubturum, karrak, qiltiq, shirach va boshqalar adir balandlik mintaqasining asosiy o'simliklari hisoblanadi. Tog' o'rmon-dasht balandlik mintaqasi viloyat hududidagi 1300 - 2700 m gacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi.

Balandlikka ko'tarilgan sayin, havo haroratining pasayishi va yog'in miqdorining ko'payishi o'simlik dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Tog' balandlik mintaqasining quyi qismida gulxayri, arslonquyruq, chayir, chalov, bug'doyiq, tog' yalpizi, shuvoq, kabi o'simliklar uchraydi. Tog'lar tabiiy sharoitidagi tafovut, uning o'simlik qoplamining joylashishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Tog' balandlik mintaqasining yuqori qismida daraxtlar va butalar keng tarqalgan, ular orasida archazorlar katta maydonlarni egallaydi. Zomintog', Chumqortog' va Morguzar tog'ining shimoliy yonbag'irlarida archazorlar mavjud. Archazorlar tagida esa har xil o'tlar va butalar uchraydi. Boshqa daraxtlardan bodom, yong'oq, tut, zarang, do'lana, yovvoyi olma, tog' olchasi ham keng tarqalgan. Butalardan na'matak, zirk, irg'ay, dorivor o'simliklardan tog' piyoz, kiyiko't, rovoch, toron va boshqalarni uchratish mumkin. Tog' o'tloq mintaqasi viloyatdagi balandligi 2700 metrdan balandroq, ammo uncha katta bo'lmagan hududlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqada subalp o'tloqlari mavjud va ular tog' o'rmon-dasht balandlik mintaqasi o'tloqlaridan bo'yi bir muncha pastligi bilan farq qiladi. Subalp o'tloqlari Zomintog', Chumqortog' va Morguzar tog'ining tuproq qatlami nisbatan yaxshi rivojlangan, sernam joylarida vujudga kelgan, ular orasida qo'ng'irbosh, mushukquyruq, toron, yovvoyi arpa, chayir, shuvoq, betaga kabi o'simliklar keng tarqalgan. O'tloqlardan yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

XULOSA

Daraxtzorlar soya-salqin joy, toza havo manbai va ajoyib dam olish maskani hisoblanadi. Daryo va soylar o'tadigan vodiylarda yaproqli va ignabargli o'rmonlar joylashgan, ular tog' yonbag'irlarini nurash jarayonidan himoya qilishi bilan birga, xo'jalik ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda tumanda respublikaning boshqa mintaqalari kabi qurilishbop material hisoblangan terak daraxtini ko'paytirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.[2,99 b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Солиев А, Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси. -Тошкент.: “Университет”, 2014 й – 404 б.
2. Зокиров Ш.С, Кичик хуудлар табиий географияси. - Тошкент.: “Университет”, 1999. – 120 б
3. O'lkashunoslik atlas. “Jizzax viloyati” O'zbekiston respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi. – Toshkent.: – 2014 – y – 53 b.
4. Doniyorov, A., & Karimov, N. (2020). An incomparable book of a great scholar. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (8), 63-71.
5. Mardievna, B. M., Mukhamadjanovna, J. S., Nematovich, N. O., & Azamovich, T. V. (2020). The importance of modern methods and technologies in learning English. *Journal of critical reviews*, 7(6), 143-148.

6. Sh, S., Gudalov, M., & Sh, S. (2020). Geologic situation in the Aydar-Arnasay colony and its atropy. *Journal of Critical Reviews*, 7(3).

7. GULSHODA, P. Y. (2021, April). ON THE ISSUE OF" LEADING VERB+ SUPPORTING VERB"(IN THE EXAMPLE OF THE AUXILIARY VERB 싶다 [SIPDA]). In *Oriental Conferences* (pp. 164-170).